

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Uzluksiz ta’lim va mahalla tizimi uchun aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi “Eco-Balance” sun’iy intellektual monitoring va ta’lim platformasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - aholining ekologik xulq-atvorini shakllantirish va nazorat qilishga qaratilgan quyidagi imkoniyatlarga ega platformani yaratiladi; - Sun’iy intellekt yordamida o’simliklar dunyosini (florani) aniqlash, ularni parvarishlash va hududning ekologik holati bo’yicha aholiga real vaqtda maslahatlar beruvchi modul yaratiladi; - Aholining chiqindilarni saralash va energiya tejash bo’yicha faolligini sun’iy intellekt tahlili asosida baholab boruvchi va rag’batlantiruvchi tizim yaratiladi; - Pedagogika oliy ta’lim muassasalari va maktablar uchun “Tabiiy fanlar” fanidan yangi avlod raqamli metodik qo’llanmalarini (AR/VR texnologiyalari bilan) integratsiya qilinadi; Natijalarni sinovdan o’tkazish. Tadqiqot natijalari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yoki Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’limi muassasalari agentligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o’tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to’g’risida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’limi muassasalari agentligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o’quv qo’llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’limi muassasalari agentligining qo’llab-quvvatlash xati mavjud bo’lganida qabul qilinadi.